

# O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI

IYUN, 2025-YIL





# O'ZBEKİSTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERİALLARI

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

**ISBN 978-9910-09-204-6**

**O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 23-iyun

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarini birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

**ISBN 978-9910-09-204-6**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

*Kamolova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda*

PAST TEMPERATURALAR HOSIL QILISH VA GAZLARNI SUYULTIRISH METODLARI .....5-10

### TEXNIKA FANLARI

*Mirabdullayev Fayzullo, Tursunov Otabek*

5G TEXNOLOGIYASIDAGI XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TAHLILI .....11-18

*Tursunov Otabek, Shakarov Muhiddin*

ZAMONAVIY SIMMETRIK SHIFRLASH ALGORITMLARINI CHIZIQLI KRIPTOTHLILI .....19-27

### TARIX FANLARI

*Ergasheva Mohichexra*

ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATINING ZARAFSHON VOHASIDAGI ETNIK MUVOZANATGA  
TA'SIRI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL .....28-31

*Oralov Dostonbek*

BIRINCHI JAHON URUSHINING TURKISTON O'LKASIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI .....32-35

### IQTISODIYOT FANLARI

*Aripova Anna*

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ  
ЭФФЕКТИВНОСТИ СДЕЛОК СЛИЯНИЯ И ПОГЛОЩЕНИЯ .....36-40

*Шарипов Жамшид, Нуридинов Рамзидин*

СУНЬЙИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ДРАЙВЕРИ .....41-48

*Авдошкина Олеся*

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КРЕДИТНЫЕ  
ИНСТРУМЕНТЫ: НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ .....49-56

*Azamatov Otabek*

PROBLEMS IN IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESSES AND PROPOSED  
SOLUTIONS .....57-61

*Eraliyev Sardorjon*

AGROBIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY  
USULLARI .....62-64

*Isomuxamedov Akbarjon*

KICHIK BIZNES SUBYEKTALARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH  
VA TAHLIL QILISH .....65-67

### FILOLOGIYA FANLARI

*Mamatova Feruza*

ANTROPOFENOMENLAR: LINGVOKOGNITIV, LINGVOMENTAL, DINAMIK VA STATIK  
TURLARI .....68-73

*Yuldasheva Xurshida*

O'ZBEK ADABIY MEROSINING RAQAMLI PLATFOMALARDA O'RGANILISHI: IBN SINO  
MISOLIDA .....74-76

*Abduvaliyeva Kamola*

“SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARNING  
GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI ..... 77-82

## **GEOGRAFIYA FANLARI**

*Abdirayimova Ozoda*

SURXONDAYO VILOYATIDA BUDDIZM OBIDLARI ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI  
RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI ..... 83-86

## **YURIDIK FANLAR**

*Alimjonov Fayozbek*

LITSENZIYALASH TUSHUNCHASI, TIZIMLARI VA ULARNING TARIXIY RIVOJLANISHI ..... 87-91

*Muradullayeva Sevinch*

SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI ..... 92-96

*Abdullaeva Sabokhat*

ISSUES OF IMPROVING INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS TO COMBAT  
TRANSNATIONAL CRIMES TARGETING CRYPTOASSETS ..... 97-105

## **PEDAGOGIKA FANLARI**

*Haqberdiyev Baxtiyor, Ismag'ilova Madinabonu, Imomnazarova Durdona*

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI MUTAXASSISLARINING  
GRAFIK VA IJODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH ..... 106-108

*Разикова Дилфуза*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ  
НЕФТЕГАЗОВОГО ПРОФИЛЯ ..... 109-112

*Salimova Bakhora*

TEACHING METHODOLOGY: PRINCIPLES, APPROACHES, AND INNOVATIONS ..... 113-117

*Bakhronova Mahliyo*

“DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH” ..... 118-123

*Bekmuradova Gulnoza*

TALABALARNI ILMIY-TADQIQOT ISHLARGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK  
VA ILMIY-METODIK ASOSLARI ..... 124-129

*Rahimov Javohir*

DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA 4K VIDEO STUDIYASIDAN FOYDALANISH  
VA VIDEODARSLARNI YOZISHNING DASTURIY METODIK TA'MINOTI ..... 130-133

*Юсупова Сабоҳат*

ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОГРЕССЕ ОБЩЕСТВА ..... 134-137

## **O'ZBEK ADABIY MEROSINING RAQAMLI PLATFORMALarda O'RGANILISHI: IBN SINO MISOLIDA**

**Yuldasheva Xurshida,**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
2-kurs tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda o'rta asrlar musulmon sharqining buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinoning "She'r san'ati", "Ishq risolasi", "Ilmlar tasnifi" kabi risolalari misolida adabiy merosning raqamlashtirilgan holda tahlil qilinishi, tizimlashtirilishi va ta'limga tatbiq etilishi masalalari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Adabiy meros, raqamlashtirish, Ibn Sino, She'r san'ati, sun'iy intellekt, poetika, adabiy tahlil, innovatsiya, korpus lingvistika.

## **THE STUDY OF UZBEK LITERARY HERITAGE ON DIGITAL PLATFORMS: THE EXAMPLE OF IBN SINA**

**Yuldasheva Xurshida**

2nd-year PhD student, Alisher Navoiy Tashkent  
State University of Uzbek Language and Literature

**Abstract.** This thesis explores the digitized analysis, systematization, and educational application of literary heritage through the example of the prominent medieval Muslim Eastern thinker Abu Ali Ibn Sina and his treatises such as "The Art of Poetry," "Treatise on Love," and "Classification of Sciences." The study emphasizes the integration of digital tools in examining classical texts and highlights their role in modern literary education.

**Key words:** literary heritage, digitization, Ibn Sina, art of poetry, artificial intelligence, poetics, literary analysis, innovation, corpus linguistics.

**DOI:** <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-204-6/uzb-13>

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohalariga tubdan yangilanishlarni olib kirmoqda. Xususan, O'zbekiston – 2030 strategiyasida ilm-fan va ta'limga innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek adabiy merosining zamonaviy raqamli platformalarda tahlil etilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayonda adabiyotshunoslik, sun'iy intellekt va raqamli gumanitar fanlar o'zaro integratsiyalashuvi alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Ibn Sino o'z davrining ilg'or mantiqiy va falsafiy nazariyalarini badiiy ijodga tadbiq etgan mutafakkir sifatida, she'riyat, janrlar, dramatik tuzilma va obraz yaratish prinsiplari haqida mukammal mulohazalar bildirgan. Bu nazariy qarashlar hozirgi kunda raqamli matnlar korpusi, intellektual platformalar, AI asosidagi semantik tahlil tizimlari orqali chuqur o'rganilishi mumkin.

Bugungi kunda "O'zbek adabiy merosi elektron kutubxonasi", "Milliy ensiklopediya" onlayn bazalari, "Zyonet", "Humo" digital, "Google Books" kabi platformalarda Ibn Sino asarlari raqamli ko'rinishda mavjud. Ammo ularni filologik, stilistik, poetik aspektlarda sun'iy intellekt orqali tahlil qilish bo'yicha ishlar endigina shakllanmoqda. Shu munosabat bilan, Ibn Sino

asarlaridagi badiiy ifoda vositalari, metaforalar, dramaviy ifoda va obrazlar tizimini algoritmik asosda tahlil qilish orqali sun'iy intellektni adabiy tadqiqot vositasi sifatida qo'llash imkoniyati yaratiladi.

Bunday yondashuv bir nechta muhim ijtimoiy-ma'naviy va ilmiy foyda keltiradi:

Adabiy matnlarni yosh avlodga interaktiv shaklda taqdim etish;

Raqamli darslik va o'quv platformalarini boyitish;

Ibn Sino merosini xalqaro ilmiy aylanishga chiqarish;

Milliy adabiy tafakkurning raqamli ifodasini yaratish.

Shuningdek, Ibn Sino qarashlarini Forobiy, G'azzoliy va Tusiylarning adabiy-falsafiy qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilish imkoniyatlari ham mavjud bo'lib, bu jarayon zamonaviy platformalarda matnlararo bog'liqlik (intertextuality) asosida modellashtirilishi mumkin.

Ushbu ish natijasida o'zbek adabiy merosi, xususan, Ibn Sino ijodi faqat tarixiy-falsafiy obyekt sifatida emas, balki innovatsion fikrlash va zamonaviy texnologik tadqiqot vositasi namoyon bo'ladi. Bu esa 2030-yil istiqbollarida fan-ta'lum-texnologiya integratsiyasida adabiyotshunoslikning o'z o'rniiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Ibn Sino asarlarining zamonaviy raqamli platformalarda o'rganilishi, avvalo, tekstologik va tarjimaviy muammolarni hal etishni talab etadi. Uning "She'r san'ati" nomli risolasi arab tilida yozilgan bo'lib, mavjud o'zbekcha, ruscha va inglizcha tarjimalari turli manbalarga tayanadi. Shu bois, platformalarda ishlataladigan annotatsiyalangan matnlar versiyalari qat'iy ilmiy asosda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Shuningdek, Ibn Sino ijodida badiiy ifoda vositalari — tashbeh, istiora, majoz, dramatik tusdagi obrazlar, psixologik holatlarning badiiy ifodasi kabi unsurlar keng o'rinn egallagan. Bu jihatlarni sun'iy intellekt asosida aniqlash, tasniflash va vizualizatsiya qilish nafaqat adabiy tahlilni avtomatashtirish, balki uni ommalashtirishga ham xizmat qiladi.

Misol uchun, "She'r san'ati" risolasida Ibn Sino tragediya va komedyani "yuksak" va "tuban" san'at shakllari deb talqin qiladi. Bu tasnif Aristotelning "Poetika" asaridagi san'at tabaqalanishi bilan uzviy bog'liq. Raqamli platformalarda ushbu janrlar haqidagi nazariy qarashlarni ontologik xaritalar, gipermatnli interfeyslar, interaktiv sxemalar orqali ifodalash mumkin. Bu metod, o'z navbatida, talabalar, tadqiqotchilar va ommaviy foydalanuvchilar uchun tushunarli vizual ilmiy makonni shakllantiradi.

Bundan tashqari, Ibn Sino asarlaridagi estetik qarashlar, xususan, "go'zallik" va "ishq" haqidagi falsafiy-badiiy mulohazalar bugungi kunda raqamli tasnif va tasviriy ifodaga moslashishga imkon beradi. Masalan, "Ishq risolasi"da keltirilgan ruhiy-psixologik holatlar sun'iy neyrotarmoqlar yordamida semantik tahlil qilinib, zamonaviy shaxs psixotiplarining badiiy aksini aniqlashga xizmat qilishi mumkin. Bu, ayniqsa, adabiy matnlarni psixolingvistik yondashuv asosida o'rganish uchun istiqbolli usuldir.

Shuningdek, Ibn Sino risolalarida ilmiy va badiiy tafakkur sintezi alohida o'rinn tutadi. Buni zamonaviy korpus lingvistika asosida, masalan, mantiqiy bog'lovchilar, stilistik shakllar, argumentatsion uslublarni ajratib tahlil qilish orqali aniqlash mumkin. Shunday yondashuv, o'z navbatida, ilmiy-badiiy matnlar tahlilining avtomatashtirilgan modellarini ishlab chiqishga turki beradi.

Zamonaviy dunyo tajribasiga nazar tashlasak, Yevropa va AQSh universitetlarida "Digital Humanities" fanlari doirasida qadimiy matnlarni raqamlashtirish, tahlil qilish,

vizualizatsiyalash va ommalashtirish bo'yicha keng ko'lamli loyiha va dasturlar mavjud. Xususan, Stanford Literary Lab, Oxford Text Archive, Perseus Project kabi platformalar qadimiy yunon, lotin, arab matnlarini zamonaviy texnologiyalar asosida tahlil etmoqda. O'zbekistonda esa bu borada ilk qadamlar tashlanmoqda va Ibn Sino merosi shu jarayonda tayanch obyekti bo'lishi mumkin.

Shu bois, mazkur maqolada ilgari surilayotgan konsepsiya — Ibn Sino adabiy-falsafiy merosini raqamlashtirish va zamonaviy tahlil platformalariga integratsiya qilish orqali o'zbek adabiyotshunosligini innovatsion bosqichga olib chiqish — "O'zbekiston-2030" strategiyasining gumanitar fanlar sohasi bo'yicha amaliy aksidir.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategik konsepsiysi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Ibn Sino. She'r san'ati. – Toshkent: Fan, 1990.
3. Ibn Sino. Ishq risolasi // Sharq mumtoz falsafasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2001.
4. Ibn Sino. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1980. (Bo'lim: "Ilmlar tasnifi")
5. Moretti F. Distant Reading. – London: Verso, 2013.
6. Oxford Text Archive – <https://ota.ox.ac.uk>
7. Perseus Digital Library – <https://www.perseus.tufts.edu>.
8. Gutas D. Avicenna and the Aristotelian Tradition: Introduction to Reading Avicenna's Philosophical Works. – Brill, 2001.

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 23-iyun

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

**O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM  
ISTIQBOLLARI.** II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi  
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 23-iyun

**ISBN 978-9910-09-204-6**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.